

AVESTODA OLOV KULTINING FALSAFIY VA DINIY MAZMUNI

Xudoyberdiyeva Shoir Murod qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Magistranti

shoiraxudoyberdiyeva70@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Avestoda olovning diniy va ma'naviy mohiyati, shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy marosimlari bilan bog'liq etnografik izlari tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi — olov kultining diniy manbada qanday aks etgani va u qadimiy aholining urf-odatlarini, dunyoqarashi hamda marosimlarida qanday rol o'ynaganini aniqlashdir. Avesto nafaqat diniy, balki ijtimoiy-ma'naviy tafakkur yodgorligi sifatida ham o'z davrining madaniy qadriyatlarini mujassam etgan asardir. Unda inson va tabiat o'rtasidagi munosabat, xususan, olov, suv, shamol kabi tabiiy unsurlar ilohiylashtirilgan holda talqin etiladi. Shu jihatdan olov kulti qadimgi jamiyatning dunyoqarashi, urf-odatlarini va marosimlarini o'rganishda muhim etnografik manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Zardushtiylik, Avesto, olov kulti, Atar, Ozar, otashkada, ozarbon, marosimlar, yorug'lik manbai, adolat timsoli.

PHILOSOPHICAL AND RELIGIOUS CONTENT OF THE FIRE CULT IN THE AVESTA

Khudoyberdiyeva Shoir Murod kizi

Master's student of Samarkand State University named after Sharof Rashidov

shoiraxudoyberdiyeva70@gmail.com

Annotation. This article will analyze the religious and spiritual nature of fire in the Avesta, as well as the ethnographic traces associated with the ancient rituals of the peoples of Central Asia. The main purpose of the article is to find out how the cult of fire was reflected in a religious source and what role it played in the customs, worldview and rituals of the ancient inhabitants. "Avesto" is a work embodying the cultural values of its time, not only as a monument to religious, but also socio-spiritual thought. It deifies the relationship between man and nature, in particular natural elements such as fire, water, and wind. In this regard, the cult of fire serves as an important ethnographic resource in the study of the worldview, customs and rituals of ancient society.

Keywords: Zoroastrianism, Avesto, fire cult, Atar, Ozar, otashkada, ozarbon, ceremonies, source of light, symbol of justice.

ФИЛОСОФСКОЕ И РЕЛИГИОЗНОЕ СОДЕРЖАНИЕ КУЛЬТА ОГНЯ В АВЕСТЕ

Худойбердиева Шоира Мурод кизи

*Магистрант Самаркандского государственного университета
имени Шарофа Рашидова*

shoiraxudoyberdiyeva70@gmail.com

Аннотация. В этой статье будет проанализирована религиозная и духовная природа огня в Авесте, а также этнографические следы, связанные с древними ритуалами народов Центральной Азии. Основная цель статьи - выяснить, как культ огня был отражен в религиозном источнике и какую роль он играл в обычаях, мировоззрении и ритуалах древних жителей. "Авесто" - это произведение, воплощающее культурные ценности своего времени, не только как памятник религиозной, но и социально-духовной мысли. Он обожествляет отношения между человеком и природой, в частности такие природные элементы, как огонь, вода и ветер. В этом отношении культ огня служит важным этнографическим источником при изучении мировоззрения, обычаев и ритуалов древнего общества.

Ключевые слова: Зороастризм, авесто, культ огня, Атар, Озар, оташкада, озарбон, церемонии, источник света, символ справедливости.

Olov qadimdan muqaddas unsur sifatida e'zozlanib kelingan. Insoniyat tafakkurining dastlabki bosqichlaridayoq olovga nafaqat issiqlik va yorug'lik manbai, balki ruhiy va jismoniy himoya vositasida ham qaralgan. Ayniqsa, qadimgi Eron, O'rta Osiyo va Ozarbayjon xalqlarining diniy dunyoqarashida olovga sig'inish va uni asrash g'oyasi markaziy o'rinni egallagan. Bu holatni zardushtiylik dinida uchratishimiz mumkin. Ushbu hududlarda keng tarqalgan zardushtiylik dini nafaqat o'z davri, balki keyingi davr jahon ma'naviy taraqqiyoti tarixida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Fikrimizning yaqqol misoli – Zardushtiylik dini muqaddas kitobi – “Avesto” matnlarida ham o'z ifodasini topgan. “Avesto” jahon madaniyatining, jumladan, O'rta Osiyo va Eron xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorligidir. Shuningdek u dingina emas, dunyoviy bilimlar, tarixiy voqealar, o'zi tarqalgan o'lkalar, elatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniy va ma'naviy qarashlari, diniy e'tiqodlari, urf-odatlariga haqiqiy manba hamdir. “Avesto” – mazdaparastlar

diniga mansub barcha adabiyotlarning umumiy nomi. “Avesto” soʻzi qadimgi mazdaparastlarning oʻzigagina mansub boʻlib, “A” artikli va “vista” feʼlidan iborat. “Vista” soʻzining oʻzagi “vid”, “vand” boʻlib, maʼnosi “tanimoq”, “bilmoq”, “topilmoq”, “koʻrinmoq” kabidir. Shu maʼnoda “Avesto”ni “Ogohnoma” yoki “Donishnoma” maʼnosida tushunish mumkin.¹⁸³

Olovga sigʻinish, talpinish kabi odatlar Zardushtiylik dini shakllanishidan oldin ham mavjud boʻlgan, albatta. Olimlarning fikricha, bu anʼana eramizdan avvalgi II ming yilliklarda Oʻrta Osiyo va Eron hududlarida yashagan ariy qabilalari orasida shakllangan.¹⁸⁴ Zardushtiylik davrida esa olov ilohiylashtirilgan unsur sifatida “Atar” nomi bilan tilga olinadi va Ahura Mazdaning eng muqaddas yaratishlaridan biri sifatida eʼzozlanadi. Mazkur qadimiy diniy matnda olov ilohiy unsur sifatida turlicha talqin etiladi. Avestoda olov kulti nafaqat diniy marosimlarda, balki xalqning kundalik hayotida, toʻy, dafn va boshqa urf-odatlarida ham oʻz aksini topgan. Shu bois olovning diniy talqini bilan bir qatorda uning etnografik oʻrnini tahlil qilish, yaʼni olovning qadimiy madaniyatlarda tutgan oʻrnini aniqlash masalasi ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Avestoda olov ilohi “Atar” nomi bilan tilga olinadi. Fors manbalarida “Atar” soʻzi “Ozar” yoki “Od” shakliga oʻzgargan. Shu boisdan fors va oʻzbek adabiyotlarida “Ozar ilohi”, “Ozar marosimi” kabi shakllar ishlatiladi. Masalan, Asqar Mahkam tarjimasidagi “Avesto”da ham “Ozar” shaklini uchratishimiz mumkin. Bu tarjimonning forsha anʼanani tanlaganidir. “Atar” soʻzi yorugʻlik, issiqlik va hayot maʼnolarini anglatadi.¹⁸⁵ U Ahura Mazda – “Donishmand Xudo”ning farzandi, poklik va adolat timsoli sifatida tasvirlanadi. “Yasna” kitobining 36-hotida olov Ahura Mazdaning eng muqaddas yaratishlaridan biri deya madh etiladi:

“Ey Atar, Ahura Mazdaning oʻgʻli! Sen adolat yoʻlida yonasan, poklikni yoyasan, yovuzlikni yoqasan!”

Bu oyatda koʻrinadiki, olov Avestoda nafaqat jismoniy energiya manbai, maʼnaviy kuch va adolat timsoli sifatida ham qaralgan. Zardushtiylik dinida olov insonning qalbini poklovchi, yovuz ruhlarni yondiruvchi, ilohiy nurlar manbai hisoblanadi. Shu sababdan ham har bir ibodat marosimi olov oldida ado etilgan. Shuningdek, Avestoda besh turdagi olov haqida ham soʻz borib, ushbu beshlik olov ilohiy mohiyatning turli koʻrinishlari sifatida tasvirlangan. Ular bir-biridan vazifasi va joylashuv oʻrniga koʻra farqlanadi. Bular quyidagilardir:

¹⁸³ Asqar Mahkam tarjimas. Avesto tarixiy-adabiy yodgorlik. – Toshkent: Sharq, 2001. 369-bet

¹⁸⁴ Boyce, M. Zoroastrians: Their Religious Beliefs and Practices. – London: Routledge, 1979.

¹⁸⁵ Gnoli, G. Zoroaster's Time and Homeland. – Naples: Istituto Universitario Orientale, 1980.

Biriziy Savangha yoki Biriziy Sava – beshlik olovning birinchisi, ma'nosi “eng ulug', eng qudratli olov”. Bu olov osmon olovi, Ahura Mazdaning ilohiy nuri, yaratuvchilik olovi sifatida tasvirlanadi. U butun borliqning asosiy kuchi hamdir.

Vuhu Fryona – beshlik olovning ikkinchisi, ma'nosi “yaxshilik yaratuvchi olov”. Bu olov insonlar va hayvonlar orasida yashovchi hayotiy harorat, issiqlik quvvatidir. Hayotning o'zi aynan shu olov bilan bog'lanadi.

Uruvaziyshta – beshlik olovning navbatdagi, uchinchi, ma'nosi “eng foydali olov”. Bu olov o'choqdagi yoki uy olovidir. U insonlar hayotini isituvchi, taom tayyorlovchi olovdir. Avestoda bu olovga alohida ehtirom ko'rsatilgan.

Vozishta – to'rtinchi olov bo'lib, ma'nosi “ilgari eltuvchi, oldinga yetaklovchi”. Bu olov bulutlar olovi bo'lib, chaqmoqdan paydo bo'ladigan tabiiy olovdir. Shuningdek u Ahura Mazdaning tabiiy qudrati timsoli hamdir.

Spiniyshta – beshlik olovning so'ngisi, ma'nosi “eng oliy, eng muqaddas olov”. Bu olov otashkadalar yondiriladigan muqaddas olov hisoblanib, zardushtiy ruhoniylar uni doimiy pok saqlagan. Sipiniyshta olam ishlariga safarbar qilingan va Bahrom olovining asosi ham Sipiniyshtadir. Yuqorida keltirilgan beshlik olov haqidagi ma'lumotlar Avestoning Yasna kitobidagi 17, 36, 62 va 64- hotlarida, shuningdek, Vandidod kitobining 8-fargardida keltirilgandir.

Eramizdan oldingi VI asrda O'rta Osiyo va Eron hududlarida yangi Zardushtiylik dini rivojlana boshlagach barcha shahar-u qishloqlarda ibodatxonalar qurila boshlanadi. Ular shoh Go'shtasp tomonidan tayinlanib, Zardusht (eramizdan oldingi 623-554) nazorati ostida me'morlar tarafidan chizilgan maxsus naqsha-proyekt asosida bunyod etilgan.¹⁸⁶ Bu ibodatxonalar mahalliy aholi tomonidan “otashkada” deya nomlangan. “Otashkada” so'zi forscha so'z bo'lib, ikki qismdan “otash” – olov, “kada” – uy, maskan degan ma'noni anglatadi. Otashkadalar muqaddas olovni qo'riqlovchi hamda uning o'chib qolmasligini ta'minlovchi maxsus insonlar bo'lgan. Bu insonlar “Avesto”da “asravn” yoki “asaurvana”, qadimgi paxlaviy tilida esa “osravan” yoxud “osrun” deb atalgan. Osrunlarni fors tilida “Ozarbon”lar deya atashgan. Ozarbonlar uchlik ijtimoiy tabaqaning biri hisoblanib, sipohilar va dehqonlar bilan bir xil mavqega ega bo'lishgan. Otashkadalar huzuridagi o'nlab Ozarbonlar zardushtiylik qoida-ta'limotini xalqqa maxsus o'rgatish, qiroat qilish, va'z aytish bilan mashg'ul bo'lgan. Otashkadalar turli tabiiy ofatlardan ehtiyotkorlik yuzasidan balandlik ustiga xom va pishiq g'ishtlardan qurilgan. Bunday otashkadalar qoldiqlari Urganch, Termiz, Balx, Marv, Tabrez, Yazd, Seiston, Isfahon singari qadimiy shaharlardan topilgan. Ushbu ibodatxonalarda nafaqat diniy marosimlar, shuningdek,

¹⁸⁶ Hamidjon Homidiy. Avestodan Shohnomaga. – Toshkent: Sharq, 2007

“Sidrapo’shi”, “Kamarbastan” kabi bir qator udum-sinovlari ham o’tkazilgan. Shuningdek, shuni ham alohida ta’kidlash joizki, otashkadalarda xalq turli marosimlarni, sayil, bayram tantanalarini ana shu yerda o’tkazishgan. Hamisha lovullab yonib, alangasi osmonga intilgan otash ular uchun bir mo’jiza, Tangrining bandalariga in’omi, poklik, ro’shnolik ramzidek tuyulgan.¹⁸⁷

O’rta Osiyo, Eron va hatto Hindiston madaniyatlariga chuqur ta’sirini ko’rsatgan bu dinning bugungi kunda ham ushbu hududlardagi aholi turmush tarzida, urf-odatlarida olov kultining izlari saqlanib qolingani. Masalan, Sumalak sayli, Navro’zdagi olov ustidan sakrash, olovga tavof qilish kabi marosimlar Avestodagi olovga sig’inish va poklanish g’oyalarning keyingi davrlardagi shakllanishidir. Etnografik kuzatishlar shuni ko’rsatadiki, bu marosimlarda olov faqat diniy ramz emas, balki ijtimoiy birlik, xalqning ijtimoiy-madaniy hayotini shakllantirgan qadimiy fenomen sifatida qaraladi. Bu e’tiqodlar olovni tozalovchi, baraka keltiruvchi unsur sifatida talqin etadi. Bundan tashqari olovning marosimlardagi o’rni ko’p hollarda ayollar faoliyati bilan bog’liq bo’lgan. Uyda o’choq yoqish, olovni saqlash, yangi o’t yoqish marosimlari ko’pincha ayollar tomonidan bajarilgan.¹⁸⁸ Bu holat olov kultida ijtimoiy va jinsiy me’yorlar tizimida ham muhim o’rin tutganini ko’rsatadi. Bu ta’limotda ayol olovga yaqin turuvchi, u orqali poklik va hayot manbaiga bog’lovchi sifatida ko’riladi. Bu jihatdan olov kultining ayollar bilan bog’liqligi qadimgi jamiyatda jinsiy rollarning muqaddaslik va himoya ramzlari bilan aloqadorligini ko’rsatadi.

Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki, zardushtiylarning falsafiy-estetik dunyoqarashiga yo’rug’lik va quvonch, yaxshilik va hayot, go’zallik va haqiqatni ulug’lash va kuylash xos bo’lgan. “Avesto”- nafaqat Sharq xalqlarining, balki butun insoniyatning quvonchli, otashin “bolalik” davri bilan bog’liq olov haqidagi e’tiqod, bilim va tasavvurlar qomusidir. Undagi Atar (Ozar) obrazi esa, faqat tabiat hodisasi emas, balki inson ruhini poklovchi va adolatni qaror toptiruvchi ilohiy kuch sifatida ko’riladi. Shunday qilib, u nafaqat Avestoning muhim timsoli, balki butun insoniyat tafakkurida poklik, adolat va hayotning davomiyligini ifodalovchi ramzdir. Mazkur holat Avestodagi olov kultini nafaqat diniy, balki etnografik va falsafiy manba sifatida tahlil etish zarurligini ko’rsatadi. Shu asosda, Avestodagi olov kultini va unga bog’liq marosimlar tarixiy-etnografik jihatdan Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy identiteti va diniy qadriyatlarini o’rganishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

¹⁸⁷ Hamidjon Homidiy. Avestodan Shohnomaga. – Toshkent: Sharq, 2007

¹⁸⁸ G’iyosov, R. Markaziy Osiyo xalqlari marosim madaniyati. – Toshkent: Fan, 2008.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asqar Mahkam tarjimasi. Avesto tarixiy-adabiy yodgorlik. –Toshkent: Sharq, 2001. 369-bet
2. Boyce, M. Zoroastrians: Their Religious Beliefs and Practices. – London: Routledge, 1979.
3. Gnoli, G. Zoroaster’s Time and Homeland. – Naples: Istituto Universitario Orientale, 1980.
4. Hamidjon Homidiy. Avestodan Shohnomaga. –Toshkent: Sharq, 2007
5. G‘iyosov, R. Markaziy Osiyo xalqlari marosim madaniyati. – Toshkent: Fan, 2008.